

## GURUHIY JAMOALARDA ISHLASHDA IJTIMOIIY FASILATSIYA

**Fayzullayev Anvar Zayniddinovich**

(Psixologik va ijtimoiy faktorlar sifatida)

O‘zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: [fayzullayivanvar@gmail.com](mailto:fayzullayivanvar@gmail.com)

O‘ZMU Psixologiya(faoliyat turlari bo‘yicha)

II bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Insonning faoliyati u bevosita ishlayotgan jamoaga bog‘liq. (Genri Ford) Ijtimoiy-psixologik bilimlarning keng rivojlanishi inson omilini yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratgandek, uning asosiy mehnat faoliyatiga ta’sirining bevosita inson ish faoliyati olib borayotgan sotsiumga bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy fasilatsiya, ijtimoiy ingibitsiya, atmosfera, demokratiya, menejment, sub’ekt, mexanizm, effekt, mahorat, auditoriya, kompetentlik, Temperament, xarakter, dunyoqarash, ijtimoiy ustanovkalar.

### ABSTRACT

A person’s activity directly depends on the team in which he works. (Henry Ford) Just as the wide development of social and psychological knowledge created the basis for a deeper study of the human factor, its impact on the main work activity directly depends on the society in which the person’s work is conducted.

**Keywords:** Social facilitation, social inhibition, atmosphere, democracy, management, subject, mechanism, effect, skill, audience, competence, Temperament, character, worldview, social institutions.

## KIRISH

Zamonaviy dunyoda u yoki bu sohalarda faoliyat yuritish va ma'lum sohada moslashish, muvaffaqiyatga erishishda zamon ruhiga mos ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimi juda muhim sanaladi. Xususan, BBC ishtirokida JSST ma'lumotlariga tayangan holda dunyoda har yili 700 ming yaqin inson kasbiy stress tufayli vafot etishi aniqlangan. Bunda asosiy omillar sifatida ish sharoitining yomonligi, personallarning tipologik jihatdan sub'ektlarga (ishchi, xodimga) nisbatan munosabati, surunkali charchoq, oilaviy muhit (agar oilali bo'lsa), u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli keltirib o'tilgan. Shuning uchun inson ijtimoiy muhitning faol a'zosi sifatida jamiyat bilan integratsiya qiladi.<sup>1</sup>

Shu o'rinda, O'zbekiston muhitida ijtimoiy muhit va ijtimoiy holat – ish va mehnat samaradorligini, sotsial institutlarning faol ishlashi natijasida inson resurining qadrini, keng faoliyatga jalb etish juda muhim sanaladi. Zero, mehnat va ish sharoitida qulay muhit (atmosfera)ning mavjudligi bandlik munosabatini va samaradorligini karra oshiradi. Shu jihatdan xodim va ishchilarga munosib ish sharoitini yaratish, samarali moliya siyosatini yuritish hukumat darajasidagi ahamiyatga molik yechim sifatida qaralishi kerak. Chunonchi, demokratik davlatda eng katta kuch – bu inson omili sanaladi. Shu jihatdan potensial xodim va ishchilarga kerakli va munosib ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish zamonaviy tadbirkorlik sub'ektlariga zarur turtki vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan inson resursi psixologik aspekt sifatida bitmas boylik sanaladi. Xodim yoki ishchining mehnat unumi va samarasi ularning bevosita kollektiv jamoaga mos kelishi va moslashishi, ular mehnat qiladigan muhitning jipsligi va faoliyat birligi asnosida rivojlanadi.

Zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, garchi ijtimoiy sharoit yaxshi tashkillashtirganiga qaramay, asosan, inson omili bilan shug'ullanuvchi kasblarda – ularning mehnat samaradorligi eng avvalo, xodim yoki ishchilarning ular faoliyat

<sup>1</sup> Maqola JSST ma'lumotiga tayangan holda BBC korporatsiyasi ostida 2021-yil 17-mayda nashr etildi.

yuritayotgan muhit qandayligi dastlabki o‘rinda turishi aniqlangan. Shu jihatdan kuchli ijtimoiy reglament va chuqur sotsial islohotlarning aholining ish samarasi va unumi, munosib mehnat qilishiga asosiy zamin yaratadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning iqtibosi o‘rinlidir. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgorigidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz. «**Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari**» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.”<sup>2</sup>

Mavzumizning asosiy ko‘rsatkichi xodim va ishchilarda ijtimoiy muhitning fasilatsion jarayoni hisoblanib, zamonaviy HR-menejment va boshqaruv faoliyatida psixologik jabhalarining qirralari va ularning sabablari, boshqaruv faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilganligi, akmelogik xususiyatlarning shakllanganligi bilan bog‘liq.

**Ijtimoiy fasilatsiya** (qulaylik) – bu insonning yolg‘iz emas, balki boshqa odamlar ishtirokida vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi ta’siri. Bu ijtimoiy-psixologik mexanizmning o‘zi, ya’ni harakatlar muvaffaqiyatining tezligi, hajmi va boshqa ko‘rsatkichlarining o‘z turidagi bir qator individlarning mavjudligiga bog‘liqligi odamlarda faoliyat tarziga ta’sir qiluvchi xususiyat hisblanadi. Ta’sir odatda yaxshi o‘rganilgan reaksiyalar yoki odatiy harakatlar bilan bog‘liq harakatlar paytida kuzatiladi. Bunda asosan, guruhiy mehnat jarayonida ish qiymati hissasi o‘lchanadi va baholanadi. Va sub’ektning mehnat unumdorligi unga berilgan topshiriq va faol kommunikatsiya munosabati asosida bevosita uning ishchanlik qobiliyatiga va psixologik qoniqish sifatida kayfiyatiga ta’sir qiladi.

<sup>2</sup> Sh. Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘itangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016. UO‘K: 323.(575.1) KBK 66.3(50’) M 54.13-bet.

Bunga **effekt** beruvchi bir necha faktorlar mavjud:

-**Mahorat darajasi.** ijtimoiy fasilatsiya fenomeni "yangi ishni boshlovchilar" va "professionallar"da turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, endigina yangi narsalarni o‘rganayotgan, mustaqil ravishda mashq qilayotgan inson o‘zini odamlarning yonidan ko‘ra ancha erkin his qiladi. Boshqalarning mavjudligi unga hissiy stressni keltirib chiqaradi va xatolarga olib keladi. Birinchidan, u xotirjam muhitda ko‘nikmalarni egallashi, ularni avtomatizmga aylantirishi va shundan keyingina "ommaviy nutq" ga o‘tishi kerak;

-**Auditoriya kompetentligi.** Agar yangi kelgan xodim kuzatuvchi sifatida hamkasblaridan ko‘ra yetarlicha malakali bo‘lmasa, unda xodim yaxshiroq ishlashga intiladi (lekin professionallikdagi farq bundan mustasno.);

- **Shaxsiy tashvish va ijtimoiy baholash qo‘rquvi.** Bunda xodimga “chetdan” baho berish qo‘zg‘atuvchi sifatida rol o‘ynaydi;

- **Kayfiyat.** Ijtimoiy fasilatsiyaga kayfiyat ham ta’sir qiladi: yaxshi kayfiyat ruhiyatni kuchaytirishi mumkin.

-**Kuzatuvchilarning jinsi.** Qarama-qarshi jins vakillari oldida topshiriqning qiyinlik yoki osonlik darajasiga qarab inson samara o‘zgarishi mumkin.<sup>3</sup>

Bu asosan, ijtimoiy fasilatsiya jarayoning shakllanishi va uning aks ta’siri **ijtimoiy ingibitsiya** vujudga kelishiga turtki(richag) sifatida izohlanishi mumkin.

Bundan tashqari shaxsning individual tipologik va xarakter xususiyati va tarbiyalanganlik darajasi juda katta rol o‘ynaydi. (Temperament, xarakter, dunyoqarash, ijtimoiy ustanovkalar,)

Iqtibos sifatida inson omili – har doim asosiy kuch va mexanizm bo‘lib kelgan va inson mahsulini sifatli va to‘g‘ri yo‘nalganligini aniqlashda barcha kriteriyalar inobatga olinishi zarur. Zero, qulay muhit va sharoit sivilizatsiya manbai insonning bor salohiyatini namoyon qilishga muhim zamin yaratadi.

<sup>3</sup> Psyfactor.org nashriyoti va sayti asosida manba keltirib o‘tilgan.2021.y.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytib o‘tishimiz keraki, hozirgi kunda malakali kadrlar va ularning mehnat salohiyati eng qimmat – investitsiya bo‘lib, ularga yaratilayotgan qulayliklardan tortib ularning ruhiyatining ahamiyatligi darajasigacha qarab, bevosita zamon talablari va ko‘rsatkichlari asosida faol va jadal ijtimoiy qism sifatida e‘tibor talab etadi. Kollektiv jamoaning ishida guruhning rivojlanish darajasi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, psixologik va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan jamoalarni kuzatish, ayniqsa, turli xil yechimlarga ega bo‘lgan murakkab vazifalar uchun faqat ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni, kuchli jamoani shakllantirish bunday vazifalar bilan ishlashning asosiy shartidir. Xususan, u yoki bu jabhani o‘rganishda albatta, mavjud ijtimoiy qatlamning psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘itangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016. UO‘K: 323.(575.1) KBK 66.3(5O‘) M 54.13-bet.
2. Psyfactor.org nashriyoti va sayti asosida manba keltirib o‘tilgan.2021.y.
3. The Dynamogenic Factors In Pacemaking And Competition. Norman Triplett (1898)  
American Journal of Psychology,
4. D.Mayers. Itimoiy Psixologiya. — 7-nashriyot. — SPb.: Piter, 2007. — 794 bet. — (Psixologiya ustasi {Мастер психологии.})